

TIJORAT BANKLARI FAKTORING XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Jalilov Azizbek Baxodir o‘g‘li

Aziya-Invest Bank AJ,

G‘aznachilik boshqarmasi,

Likvidlik va moliyaviy tahlil bo‘limi bosh mutaxassisi

E-mail: ajalilov527@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada tijorat banklarining faktoring xizmatlari orqali kichik biznesni moliyalashtirishdagi roli o‘rganildi. Xalqaro tajribalar, raqamli texnologiyalar integratsiyasi va innovatsion yondashuvlar asosida faktoringning afzalliklari tahlil qilindi. Tadqiqotda kontent va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanib, faktoringning moliyaviy barqarorlikni oshirishdagi samaradorligi aniqlangan. Natijalar banklar va kichik biznes o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, huquqiy asoslarni mustahkamlash hamda raqamli platformalar orqali xizmatlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan choralar faktoring bozorining rivojlanishini jadallashtirib, kichik biznesning o‘sishiga va iqtisodiy faollikning ortishiga ijobiy hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: faktoring, tijorat banklari, kichik biznes, moliyalashtirish, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba.

Аннотация

В статье изучена роль коммерческих банков в финансировании малого бизнеса через факторинговые услуги. На основе международного опыта, интеграции цифровых технологий и инновационных подходов проанализированы преимущества факторинга. В исследовании применены контент- и сравнительный анализ, что позволило выявить эффективность факторинга в повышении финансовой устойчивости. Результаты показали необходимость расширения сотрудничества между банками и малым бизнесом, укрепления правовой базы и совершенствования услуг с помощью цифровых платформ. Предложенные меры могут ускорить развитие рынка факторинга, способствовать росту малого бизнеса и повышению экономической активности.

Ключевые слова: факторинг, коммерческие банки, малый бизнес, финансирование, цифровые технологии, международный опыт.

Abstract

The article examines the role of commercial banks in financing small businesses through factoring services. Based on international experience, digital technology integration, and innovative approaches, the advantages of factoring are analyzed. The study applies content and comparative analysis to identify the effectiveness of factoring

in enhancing financial stability. The results highlight the need to strengthen cooperation between banks and small businesses, improve the legal framework, and develop services through digital platforms. The proposed measures can accelerate the factoring market's growth, support small business development, and boost economic activity.

Keywords: factoring, commercial banks, small business, financing, digital technologies, international experience.

KIRISH

Kichik va o'rta biznes iqtisodiyotning eng faol va tez rivojlanayotgan bo'g'inlaridan biri bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy bozorlarni rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi. Ularning muvaffaqiyati ko'pincha tezkor va ishonchli moliyalashtirish manbalarining mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklangan korxonalar uchun faktoring xizmatlari samarali yechim sifatida shakllangan bo'lib, bu xizmat qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Faktoringning afzalligi shundaki, u an'anaviy kreditlashga qaraganda tezroq, moslashuvchanroq va ko'pincha garov talab qilmaydi.

Jahon faktoring bozori so'nggi yillarda sezilarli o'sishga erishdi: FCI (Factors Chain International) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global faktoring hajmi 3,7 trillion yevroga yetgan. Bu o'sish raqamli texnologiyalar, onlayn moliyalashtirish platformalari va bank-fintech hamkorligining kuchayishi bilan bog'liqdir. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, huquqiy asoslari rivojlangan va banklar faol qatnashadigan mamlakatlarda faktoring kichik biznes uchun barqaror moliyaviy manba sifatida samarali ishlaydi.

Mazkur tadqiqot tijorat banklarining faktoring xizmatlarini rivojlantirishdagi o'rni, ularning raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi va kichik biznesni moliyalashtirishdagi samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar, ilg'or amaliyotlar va mavjud ilmiy yondashuvlar o'rganilib, faktoring xizmatlarini keng tatbiq etishning afzalliklari va istiqbollari yoritiladi. Shu bilan birga, banklar va kichik biznes o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Faktoring iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning samarali vositasi sifatida tan olingan. U korxonalarga aylanma mablag'larini tezda to'ldirish, likvidlikni ta'minlash va to'lovlarning kechikishi bilan bog'liq moliyaviy xavflarni kamaytirishga yordam beradi. Gorgon va Marcuta 2023-yilda bu xizmatning an'anaviy kreditga nisbatan ustunliklarini tahlil qilib, uning moslashuvchanligi va qisqa muddatli

ehtiyojlarni qoplashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [2]. Ivanovic va hamkorlari 2011-yilda faktoringning xalqaro tajribasini o'rganib, uni korxonalar uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbai sifatida tavsiflaydi [4]. Onaepemipo va boshqalar 2019-yilda esa, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit resurslariga kirish imkoniyati cheklangan biznes subyektlari uchun faktoringning dolzarbligini asoslaydi [9].

Klapper tomonidan 2004-yilda ishlab chiqilgan "reverse factoring" modeli yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni soddalashtirishga qaratilgan bo'lib, u risklarni kamaytirish va to'lov intizomini yaxshilash imkonini beradi [5]. Bărbuță-Mișu 2013-yilda esa ushbu xizmatning korxonalar barqarorligi uchun afzalliklarini yoritadi va uni qisqa muddatli moliyalashtirishning samarali shakli sifatida baholaydi [1].

Tijorat banklari faktoring xizmatlarini taklif etishda asosiy ishtirokchilardan biridir. Rexhepi va hamkorlari 2024-yilda Kosovodagi ProCredit Bank tajribasi misolida ushbu xizmatni bank mahsulotlari tarkibiga qo'shish kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi [10]. Spasić va boshqalarning 2012-yildagi tadqiqoti bu xizmatni kengaytirishda huquqiy asoslarning muhimligini ta'kidlaydi [11]. Tan 2025-yilda bank sektorida risklarni boshqarishning samarali mexanizmlarini o'rgangan holda, innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etishning ahamiyatini qayd etadi [12].

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi faktoring xizmatlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratmoqda. Kostoviyat va Serzhanov 2024-yilda raqamli moliyaviy platformalarning bank tizimidagi o'rmini o'rganib, ular kichik biznes uchun qo'shimcha moliyalashtirish imkoniyatlarini ochishini ko'rsatadi [6]. Novianti va hamkorlari 2025-yilda fintech xizmatlarining kichik biznes tomonidan tez qabul qilinishini ta'minlovchi omillarni tahlil qiladi [8]. Mashrur 2025-yilda esa startaplarning moliyaviy barqarorligi uchun raqamli rejalashtirishning ahamiyatini empirik dalillar bilan asoslab beradi [7].

Xalqaro tajribalar faktoringning rivojlanayotgan mamlakatlarda korxonalar uchun kreditga muqobil vosita sifatida katta salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Tomusange 2015-yilda Afrikadagi amaliyotni tahlil qilib, bu xizmatni kengroq joriy etish uchun institutsional islohotlar zarurligini ta'kidlaydi [13]. Haltiwanger 2021-yilda pandemiya davrida yangi bizneslarning shakllanishi va tadbirkorlik faolligining oshishi uchun moslashuvchan moliyaviy vositalarning, jumladan faktoringning, ahamiyati ortganini qayd etadi [3].

Umumiy xulosalarga ko'ra, faktoring korxonalar uchun kreditlashga alternativ, tezkor va moslashuvchan moliyalashtirish shaklidir. Tijorat banklari bu xizmatni kengaytirish orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu

bilan birga, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuv faktoringni yanada qulay va samarali qilish imkonini beradi. Shu sababli, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, faktoring xizmatlarini rivojlantirish va banklar faoliyatiga keng tatbiq etish kichik biznesni barqaror moliyalashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

METODOLOGIYA


Tadqiqotda tijorat banklarining faktoring xizmatlari orqali kichik biznesni moliyalashtirishdagi rolini baholash uchun qiyosiy va kontent-tahlil usullari qo'llandi. Ilmiy manbalar asosida faktoringning nazariy asoslari, banklar tajribasi va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi o'rganildi. Kosovodagi ProCredit Bank hamda boshqa mamlakatlardagi amaliy tajribalar tahlil qilinib, fintech yechimlarining ushbu xizmatlarga ta'siri baholandi. Olingan natijalar asosida faktoringning kichik biznes uchun samaradorligi va banklar uchun istiqbollari bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar va o'rganilgan ilmiy manbalar tahlili faktoring xizmatlarining kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda tutgan o'rning tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu xizmat korxonalariga aylanma mablag'larini tezkor to'ldirish, moliyaviy oqimlarini barqarorlashtirish va kredit olish jarayonlarida uchraydigan byurokratik to'siqlarni kamaytirish imkonini beradi. Gorgon va Marcuta 2023-yilda faktoringning an'anaviy kreditlashga nisbatan ustunliklarini ko'rsatib, uni kichik korxonalar uchun qisqa muddatli moliyalashtirishning samarali manbai sifatida baholaydi [2]. Ivanovic va hamkorlari 2011-yilda faktoringning xalqaro moliyaviy tizimdagi rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, turli mamlakatlardagi amaliyotlar bo'yicha tajribalarni taqdim etadi va ushbu xizmatning iqtisodiyotning turli segmentlari uchun strategik ahamiyatini ta'kidlaydi [4]. Onaepemipo va boshqalar 2019-yilda ham faktoring xizmatlarining rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit resurslariga cheklangan kirish imkoniyatini qoplashda samarali vosita sifatida dolzarbligini asoslaydi [9].

Klapper tomonidan 2004-yilda ishlab chiqilgan "reverse factoring" modeli yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni soddalashtirishga, shuningdek, moliyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun samarali mexanizm sifatida e'tirof etiladi [5]. Bärbuță-Mișu 2013-yilda esa faktoringning qisqa muddatli moliyaviy oqimlarni ta'minlashdagi ahamiyatini ochib beradi va ushbu xizmatning kichik korxonalar barqarorligi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishini qayd etadi [1]. Ushbu manbalar umumlashtirilgan holda, faktoringning moliyaviy vosita sifatidagi nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari yanada yaqqol tasvirlanadi.

Faktoring jarayoni 1-rasmda tasvirlangan bo‘lib, unda xizmatning barcha asosiy bosqichlari ketma-ketlikda ko‘rsatilgan. Jarayon kichik biznesning xaridorga mahsulot yoki xizmat yetkazib berishi va hisob-faktura taqdim etishidan boshlanadi. So‘ng bank yoki faktoring kompaniyasi ushbu hisob-fakturani sotib oladi va korxonaga to‘lovning katta qismini oldindan to‘laydi. Keyinchalik xaridor belgilangan muddatda to‘lovni bankka amalga oshiradi, bank esa qolgan mablag‘ni komissiyani chegirib, korxonaga o‘tkazadi. Bu sxema faktoringning asosiy mexanizmini tushunarli tarzda aks ettiradi.



1-rasm. Faktoring xizmatlarining ishlash mexanizmi¹

Tijorat banklarining ushbu xizmatdagi roli alohida e‘tiborga loyiqdir. Rexhepi va hamkorlari 2024-yilda Kosovodagi ProCredit Bank tajribasini tahlil qilib, faktoring xizmatlarini bank mahsulotlari tarkibiga qo‘shish kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini isbotlaydi [10]. Shu bilan birga, Spasić va boshqalarning 2012-yildagi tadqiqoti faktoring xizmatlarini samarali rivojlantirish uchun huquqiy asoslarning mustahkamlanishi zarurligini ta’kidlaydi [11]. Bu holat tijorat banklarining faktoring xizmatlarini kengaytirishi va ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonida barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tan 2025-yilda olib borgan tadqiqot esa banklarda risklarni boshqarishning zamonaviy usullarini

¹ Muallif ishlanmasi

o'rgangan va ushbu yondashuv faktoring kabi moliyaviy vositalar bilan uyg'unlashtirilganda yanada samarali natijalar berishini ko'rsatgan [12].

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar moliya sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kostoviyat va Serzhanov 2024-yilda raqamli moliyaviy platformalarning bank tizimidagi ahamiyatini tahlil qilib, ular yordamida kichik biznes uchun yangi moliyalashtirish kanallarining paydo bo'lishini va moliyaviy inklyuziyaning oshishini ta'kidlaydi [6]. Novianti va hamkorlari 2025-yilda fintech xizmatlarining kichik biznes tomonidan tez qabul qilinishiga sabab bo'luvchi omillarni o'rgangan. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar moliyaviy xizmatlarning tezligi, qulayligi va arzonligini oshirib, faktoring kabi vositalarning ommalashuviga hissa qo'shadi [8]. Mashrur 2025-yilda o'tkazgan tadqiqot esa startaplar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli rejalashtirish va moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning ijobiy ta'sirini empirik dalillar bilan asoslaydi [7].

Faktoringning amaliy ustunliklari va zaif tomonlari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, bu xizmatning asosiy afzalliklari tezkor moliyalashtirish, garov talab qilinmasligi va aylanma mablag'larni barqarorlashtirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, kamchiliklar sifatida xizmat haqi nisbatan yuqoriligi va barcha korxonalar uchun mos kelmasligi qayd etiladi.

1-jadval.

Faktoringning afzalliklari va kamchiliklari¹

Afzalliklar	Kamchiliklar
Tezkor moliyalashtirish imkoniyati	Xizmat haqi va komissiya yuqoriligi
Garov talab qilinmasligi	Barcha bizneslar uchun mos bo'lmasligi
Aylanma mablag'larni barqarorlashtirish	Huquqiy bazaga kuchli bog'liqlik
Moliyaviy risklarni kamaytirish	Kreditdan qimmatroq bo'lishi mumkin

Xalqaro tajribalar ham faktoringning kichik biznes uchun samarali moliyalashtirish vositasi ekanini tasdiqlaydi. Tomusange 2015-yilda Afrikada olib borgan tadqiqotida ushbu moliyaviy vositaning rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilishi uchun zarur bo'lgan institutsional islohotlarni tahlil qiladi va faktoringning kichik korxonalar uchun kreditlashga muqobil vosita sifatidagi imkoniyatlarini yoritadi [13]. Haltiwanger 2021-yilda esa pandemiya davrida yangi bizneslarning o'sishi va iqtisodiy faollikning oshishi uchun moslashuvchan moliyaviy vositalarning, jumladan faktoringning, ahamiyatini ta'kidlaydi [3]. Bu natijalar faktoring xizmatlarini rivojlantirish nafaqat qisqa muddatli moliyaviy ehtiyojlarni

¹ Muallif ishlanmasi

qoplash, balki iqtisodiy inqiroz davrida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda ham strategik vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar asosida umumlashtirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, faktoring xizmatlari kichik biznes uchun tezkor va ishonchli moliyalashtirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari ushbu xizmatlarni taklif etish orqali moliyaviy bozorni yanada diversifikatsiya qiladi va kichik korxonalarining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan faktoring xizmatlari kelgusida yanada samarali, shaffof va keng qamrovli moliyaviy vosita sifatida shakllanishi mumkin. Shu bois, faktoring xizmatlarini rivojlantirish, ularni tijorat banklari faoliyati bilan uyg‘unlashtirish va raqamli platformalar yordamida takomillashtirish kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bunday yondashuv nafaqat korxonalar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, faktoring xizmatlarini kengaytirish, ularning huquqiy bazasini mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish davlat, bank va biznes hamkorligi doirasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan strategik vazifalardan biri sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari faktoring xizmatlarining kichik va o‘rta biznes uchun yuqori ahamiyatga ega moliyaviy vosita ekanini ko‘rsatdi. Ushbu xizmat korxonalariga aylanma mablag‘larni tezda to‘ldirish, moliyaviy oqimlarni barqaror boshqarish va to‘lovlarning kechikishi bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishga yordam beradi. Faktoring an‘anaviy kreditlashga nisbatan ko‘proq moslashuvchan va tezkor bo‘lib, ayniqsa garov ta‘minoti yetarli bo‘lmagan korxonalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. O‘rganilgan xalqaro tajribalar huquqiy asoslari mustahkam bo‘lgan mamlakatlarda faktoring samaraliroq ishlashini, tijorat banklari faoliyatida keng joriy etilganida esa kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan faktoring xizmatlari esa jarayonlarni soddalashtirib, tezkor va shaffof qilishi bilan ajralib turadi.

Tijorat banklari faktoringni rivojlantirish orqali kichik biznes uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratishi mumkin. Kosovodagi ProCredit Bank tajribasi buni yaqqol tasdiqlaydi, chunki ushbu xizmatning joriy etilishi kichik korxonalar uchun investitsion salohiyatni oshirgan. Fintech yechimlari va raqamli platformalar esa faktoring jarayonini yengillashtirib, uni kengroq auditoriya uchun qulay shaklda taqdim etmoqda. Bu jarayon global moliya bozoridagi zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘unlashib, iqtisodiy o‘shish va tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Tijorat banklari faktoringni strategik moliyaviy mahsulot sifatida rivojlantirishi lozim. Bu kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirib, banklar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

- Huquqiy asoslarni xalqaro tajribaga moslashtirish. Soddashtirilgan shartnomalar va aniq me'yoriy talablar faktoring xizmatlarini keng joriy etishga yordam beradi.

- Raqamli texnologiyalarni faol joriy etish. Mobil va onlayn platformalar orqali faktoring xizmatlarini taklif qilish xizmatni tez, qulay va arzon qiladi.

- Banklar va fintech kompaniyalari hamkorligini kuchaytirish. Bu yangi moliyaviy yechimlar yaratishga va ularni keng tatbiq etishga imkon beradi.

- Tadbirkorlar uchun ma'rifiy dasturlarni rivojlantirish. Faktoringning imkoniyatlari haqida o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish kichik biznesga xizmatdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ushbu choralar faktoring xizmatlarining rivojlanishini jadallashtiradi, kichik biznesning barqaror o'sishiga hissa qo'shadi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Shu bilan birga, banklar uchun yangi bozor imkoniyatlari yaratiladi, davlat uchun esa tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi va innovatsion moliyaviy xizmatlarning kengayishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barbuta-Misu, N. (2013). Factoring – Alternative of short-term financing for companies. International Conference “Risk in Contemporary Economy.” Dunarea de Jos University of Galati. https://www.academia.edu/download/78238230/Barbuta-Misu_Nicoleta.pdf

2. Gorgon, E., & Marcuta, A. (2023). Study on the role of factoring in business financing. Scientific Papers Series Management, Economic Engineering in Agriculture and Rural Development, 23(3), 323–329. https://managementjournal.usamv.ro/pdf/vol.23_3/Art36.pdf

3. Haltiwanger, J. C. (2021). Entrepreneurship during the COVID-19 pandemic: Evidence from the business formation statistics. NBER Working Paper No. 28912. <https://www.nber.org/papers/w28912>

4. Ivanovic, S., Baresa, S., & Bogdan, S. (2011). Factoring: Alternative model of financing. UTMS Journal of Economics, 2(2), 189–206. <https://hdl.handle.net/10419/105294>

5. Klapper, L. (2004). The role of “reverse factoring” in supplier financing of small and medium sized enterprises. World Bank Policy Research Working Paper. http://www.factoring-mittelstand.de/19_experinces.pdf

6. Kostovyat, H., & Serzhanov, V. (2024). Financial digital platforms and their impact on the inclusive development of the banking system of Ukraine. In *Economic and Social Development in Period of Global Instability* (pp. 48–55). <https://dspace.uzhnu.edu.ua>
7. Mashrur, F. A. (2025). Financial resilience and growth in U.S. startups. *International Journal of Economics, Business and Management Research*, 9(6), 374–390. <https://doi.org/10.51505/IJEBMR.2025.9621>
8. Novianti, N., Ilona, D., Darmayanti, Y., & Zaitul, Z. (2025). Exploring fintech adoption drivers among tourism-supported culinary SMEs. *Investment Management and Financial Innovations*, 22(1), 405–415. [https://doi.org/10.21511/imfi.22\(1\).2025.30](https://doi.org/10.21511/imfi.22(1).2025.30)
9. Onaepemipo, E., Zubairu, U., Abubakar, B., Araga, S., Umar, H., & Ochepe, A. (2019). Factoring as an effective working capital option: A critical review. *International Journal of Commerce and Finance*, 5(1), 60–69. <http://irepo.futminna.edu.ng:8080/jspui/bitstream/123456789/8399/1/2019%20Onaepemipo%20et%20al..pdf>
10. Rexhepi, B. R., Mustafa, L., & Berisha, B. I. (2024). Creating a factoring service specifically designed for small and medium enterprises at Pro Credit Bank in Kosovo. *International Journal of Religion*, 5(6), 715–740. <https://doi.org/10.61707/tc834x95>
11. Spasic, I., Bejatovic, M., & Dukic-Mijatovic, M. (2012). Factoring – instrument of financing in business practice: Some important legal aspects. *Economic Research – Ekonomska Istrazivanja*, 25(1), 157–173. <https://doi.org/10.1080/1331677X.2012.11517502>
12. Tan, K. (2025). Analysis of risk management of inclusive finance credit business of commercial banks under the new normal of the economy: Taking HZ Rural Commercial Bank as an example. *Lecture Notes in Education, Arts, Management and Social Science*, 3(1), 48–53. <https://journal.whioce.com/index.php/LNE/article/download/578/543>
13. Tomusange, R. L. (2015). Factoring as a financing alternative for African small and medium-sized enterprises. *Walden University Dissertations and Doctoral Studies*. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**